

INTERAKTIV METODLARDA AUDIO MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Asroriddin Sayidazimov Tohirjon o'g'li¹

¹ Alisher Navoiy Nomidagi O'zbek Tili va Adbiyot Universitetining O'zbek tili va Adbiyot O'qitish metodikasining 1-kurs magistranti

ARTICLE INFO

ABSTRACT:

ARTICLE HISTORY:

Received: 29.05.2025

Revised: 30.05.2025

Accepted: 31.05.2025

KEYWORDS:

interaktiv metodlar,
audio materiallar,
ta'lim samaradorligi,
eshitish orqali
o'rganish, innovatsion
texnologiya, dars
jarayoni, lingvistik
kompetensiya

Ushbu maqolada audio asarlar orqali ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Interaktiv yondashuvlar yordamida o'quvchilarning tinglab tushunish, tahlil qilish, fikr bildirish kabi ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Xorijiy tajriba asosida ilg'or metodlar o'rganiladi va O'zbekistonda amaliyotga tadbiq etish uchun yangi metodologik yechim taklif qilinadi. Maqolada nazariy asoslar, amaliy tajriba va innovatsion uslublar uyg'unlashtirilgan.

INTRODUCTION. Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, interaktiv metodlar asosida bilim berish pedagogik texnologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Interaktiv metodlar o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashga undash, ularning shaxsiy ishtirokini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bunday metodlarning samaradorligini oshirishda audio materiallardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Audio materiallar — bu eshitish orqali idrok etiladigan, tovush orqali uzatiladigan axborot manbalari bo'lib, ular ta'limda ma'lumotni eshitish asosida qabul qilish imkonini beradi. Bu materiallar tarkibiga audiokitoblar, podkastlar, interaktiv eshituvli topshiriqlar, o'qituvchi ovoqidagi dars yozuvlari, radio darslar kabi vositalar kiradi. Kognitiv psixologiya nuqtai nazaridan qaraganda, odam miyasining informatsiyani eshitish orqali qabul qilish va uni qayta ishlash qobiliyati ancha yuqori darajada rivojlangan. Masalan, amerikalik psixolog Richard Mayer o'zining multimodal o'rganish nazariyasida shuni ta'kidlaydiki, vizual va audio kanallar birgalikda ishlatilganda bilim samaradorligi ortadi. Shuningdek, o'zbek olim mutaxassislari tomonidan eshitish orqali o'rganish metodlarining o'zbek ta'lim tizimidagi imkoniyatlarini

taqdim etib kelmoqda. Jumladan, Choriyeva Aysha “ Hozirgi adabiy ta’limda interaktiv metodlar muhim ahamiyatga ega. Interaktiv metod – bu ta’lim jarayonining faol, qiziqarli va samarali bo’lishini ta’minlash uchun mo’ljallangan ta’lim strategiyalari to’plamidir”. Hozirga qadar O’zbekiston ta’lim tizimida qo’llanib kelinmayotgan, jahon tajribalarida qo’llanishni boshlagan yaxshi bir metodni tavsiya qilaman. Bu “Audio Simulation-based Roleplay”. Bu audio metodimizda eshituvli ssenariylar asosida o’quvchilarning nutqiy va muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga erishiladi. Zamonaviy ta’limda bilim olish jarayonida kognitiv psixologiyaning o’rni beqiyosdir. Kognitiv nazariyaga ko’ra, inson miyasi axborotni eshitish, ko’rish va tajriba orqali qabul qiladi. Bu jarayonda eshitish — ya’ni auditiv kanallar orqali o’rganish juda muhim ahamiyatga ega. Amerikalik psixologlar R. Mayer va R. Atkinson o’zlarining Cognitive Theory of Multimedia Learning (Multimedia ta’limining kognitiv nazariyasi) asarlarida shuni isbotladilarki, odamlar eshitish va ko’rish orqali uzatilgan axborotni bir vaqtda qabul qilganda, uni chuqurroq anglab, uzoqroq vaqt saqlab qolishadi.

Rossiyalik olim T. Sorokina (2015) o’z tadqiqotida shuni ta’kidlaydiki, audio materiallar o’quvchilarning eshitish xotirasini mustahkamlaydi, ularni faol tinglovchiga aylantiradi va nutqni anglash darajasini oshiradi. Uning fikricha, ayniqsa til o’rganishda audiolingvistik yondashuv til strukturasi va kontekstual tushunchalarni o’zlashtirishda katta samara beradi.

O’zbekistonlik pedagoglar mutaxassislar eshitish orqali bilim olishni mustahkamlovchi omillar sifatida intensiv tinglash, mustahkamlovchi savol-javoblar, audio-topshiriqlar asosida muhokama qilish usullarini ilgari suradilar. Ularning nazariy izlanishlariga ko’ra, zamonaviy yoshlar uchun vizual va eshituvli materiallar eng samarali axborot manbai hisoblanadi. Audio materiallar o’quvchilar ongiga to’g’ridan-to’g’ri ta’sir etuvchi, hissiy-tasviriy idrokni faollashtiruvchi vosita bo’lib xizmat qiladi. Ayniqsa, ovoz effektlari, musiqa fonida berilgan matnlar, dramatik ifodali nutq, dialoglar orqali o’rgatilgan materiallar mustahkamroq esda qoladi. Bu metodlarni ingliz tilini o’rgatishda muvaffaqiyatli qo’llagan olim Jane Willis o’zining Task-Based Language Teaching (2009) asarida keltiradi. Jahon adabiyotidan misol sifatida, podkastlar va audiokitoblar orqali bilim olish Amerikada Audible, Angliyada BBC Sounds, Turkiyada Sesli Kitap kabi platformalarda keng rivojlangan. Ularning ko’pchiligi maktab darslari, fanlar bo’yicha maxsus eshituvlar, hatto interaktiv testlar bilan to’ldirilgan. O’zbek tilida hali bu boradagi materiallar oz bo’lsa-da, “O’zbek tili darslari” (radiodarslar shaklida), “ZiyoNET” portali va “Audiokitob.uz” platformalari orqali ilk qadamlar qo’yilgan. Bu esa milliy ta’limda audio vositalarning hali to’liq tatbiq etilmaganini anglatadi.

Audio vositalar: podkastlar, audiokitoblar, eshituvli testlar

Podkastlar — bu mavzuli audio darslar bo’lib, ularni istalgan vaqtda tinglash mumkin. Bu vosita o’quvchilarni mustaqil bilim olishga undaydi, ayniqsa eshitish orqali tafakkurni rivojlantiradi. Misol uchun, "EnglishClass101" yoki "Duolingo Podcasts" kabi loyihalar ingliz tilini o’rganishda katta samara bergan.

Audiokitoblar — badiiy va ilmiy matnlarning audio shakli bo‘lib, o‘quvchining ko‘ziga ortiqcha yuklama bermasdan, bilimni ongli tarzda qabul qilish imkonini beradi. O‘zbekiston adabiyotidan Hamid Olimjon, Abdulla Qodiriy, Oybek kabi boshqa ijodkorlarning asarlarini bir qancha platformalarda topishimiz mumkin. Misol uchun: mutolaa.uz, audio.kitob.uz singari saytlarda uchrtishimiz mumkin.

Eshituvli testlar — bu yangi format bo‘lib, savollar audio shaklda beriladi, javob esa eshituv asosida topiladi. Bu usul yevropa tillarida CEFR tizimi asosida ko‘plab sinovlarda qo‘llaniladi.

Interaktiv metodlar zamonaviy ta‘limning ajralmas qismi bo‘lib, ular orqali o‘quvchilar bilim olish jarayonida faol ishtirokchi, fikrlovchi va mustaqil qaror qabul qiluvchi subyektga aylanadilar. Bunday metodlar samaradorligini oshirishda audio materiallar asosiy vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Quyida eng samarali deb topilgan interaktiv metodlar va ularda audio vositalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

“Jigso” metodi va audio materiallar

“Jigso” — bu hamkorlikka asoslangan ta‘lim metodidir. Har bir o‘quvchi ma‘lum bir bo‘lak (ya‘ni mavzu parchasi) ustida ishlaydi va keyin guruhga qo‘shilib, o‘z bilimni baham ko‘radi.

Agar bu metodda audio materiallar — masalan, turli mavzudagi podkast bo‘laklari yoki dramatik nutqlar berilsa, har bir o‘quvchi o‘z bo‘lagini tinglab tahlil qiladi va asosiy fikrlarni og‘zaki tarzda ifodalaydi. Bu nafaqat eshitish, balki anglash, qayta aytish va nutq kompetensiyasini shakllantiradi.

Misol: “O‘zbek tili taraqqiyoti” mavzusida 4 ta tarixiy davrga bo‘lingan audioparchalar — har bir guruh a‘zosi davr bo‘yicha eshitadi, so‘ng boshqa guruhga o‘z qismidagi ma‘lumotni aytadi. Bu orqali ham tarix, ham til, ham eshitish faollashtiriladi.

“Fishbone” metodi

“Fishbone” metodi sabablardan kelib chiqadigan muammolarni aniqlash va yechim topish jarayonida ishlatiladi. Bu metodda o‘qituvchi audio orqali muammoli vaziyatni tasvirlaydi (masalan, o‘quvchining darsga qiziqmasligi haqidagi suhbat), so‘ng o‘quvchilar ushbu vaziyat asosida sabab va oqibatlarini Fishbone sxemasi orqali tahlil qiladilar.

Bunday yondashuv o‘quvchilarning kritik fikrlash ko‘nikmasini, eshituv asosida muammoni tushunish va tahlil qilish qobiliyatini oshiradi.

“Concept Mapping” metodi va eshtilgan ma‘lumotlar asosida xaritalash

Kontseptual xaritalashda o‘quvchilar o‘zaro bog‘liq tushunchalarni xarita shaklida chizishadi. Agar bu metodda audio manba asosida eshtilgan asosiy tushunchalar belgilansa, o‘quvchilarning diqqat, xotira va analitik tafakkuri mustahkamlanadi.

Masalan: “O‘zbekiston mustaqilligidan keyingi til siyosati” mavzusida eshituv asosida tushunchalar — “rivojlanish”, “davlat tili”, “yangilanish”, “asosiy qonunlar” kabi kalit so‘zlar ajratilib, xarita tuziladi.

Audio Simulation-based Roleplay metodi

Audio Simulation-based Roleplay — bu yangi, zamonaviy yondashuv bo'lib, unda o'quvchilarga audio orqali real hayotiy vaziyat ssenariysi eshittiriladi, ular esa bu vaziyatga mos ravishda rol o'ynash orqali muammoni hal qiladilar.

Metod qanday ishlaydi?

1. O'qituvchi o'quvchilarga oldindan yozilgan audio ssenariyni (masalan, avtobusda muammo, mehmonxonada bron qilish, tarixiy shaxslar suhbat) eshittiradi.

2. O'quvchilar ssenariydagi rollarni ajratib oladi.

3. Har bir o'quvchi roli asosida muloqotni jonli tarzda davom ettiradi.

4. Yakunda muhokama, xatolar tahlili va fikr almashuv bo'ladi.

Nega bu metod yangilik hisoblanadi?

Bu metod O'zbekiston ta'lim amaliyotida hali qo'llanilmagan.

Eshituv, dramatik tasavvur, og'zaki nutq va ijtimoiy kompetensiyalar birgalikda rivojlanadi.

Psixologik muhitni yengillashtiradi, o'quvchini sahnadagi ishtirokchiga aylantiradi.

Jahon tajribasida bu metod "Audio drama-based ESL teaching" nomi bilan Kanadada va Janubiy Koreyada muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Qanday fanlarda samarali?

O'zbek tili va adabiyoti (dramatik asarlarni jonlantirish)

Tarix (tarixiy ssenariylar)

Ingliz tili (kundalik suhbatlar)

Hayotiy ko'nikmalar (ijtimoiy vaziyatlar)

4. Amaliy tajribalar va natijalar

Ushbu ilmiy-tadqiqot ishini amaliy jihatdan mustahkamlash maqsadida 2024-yil mart-aprel oylarida Respublikamizning bir qancha umumiy o'rta ta'lim maktablarida tajriba sifatida amaliyotda qo'llanildi. Tadqiqotga jami 9 nafar o'qituvchi, 5 nafar tilshunos mutaxassis, 3 nafar pedagog-metodist, va 80 nafar 8–10-sinf o'quvchilari jalb etildi. Asosiy maqsad — interaktiv metodlarda audio materiallardan foydalanish o'quvchilarning tushunish, eslab qolish va faol ishtirok darajasiga qanday ta'sir qilishi ekanini aniqlash edi.

Statistik natijalar

Tajriba davomida o'quvchilarning bilim olishga qiziqishi, tinglash darajasi va mustaqil fikrlash ko'rsatkichlari maxsus testlar asosida baholandi:

Mezoni Tajriba guruhi (audio ishlatilgan) Nazorat guruhi (audio ishlatilmagan)

Diqqatni jamlash 82% 67%

Eshitganini to'g'ri tushunish 78% 59%

Eslab qolish darajasi (1 hafta o'tgach) 71% 46%

Savol-javobda ishtirok etish 89% 64%

Ushbu raqamlar shuni ko'rsatadiki, audio materiallar bilan boyitilgan interaktiv metodlar orqali berilgan bilimlar nafaqat o'quvchilar e'tiborini jalb etadi, balki mavzuni chuqurroq anglash va mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'quvchilar fikrlari

Tadqiqot yakunida o'quvchilarga yozma so'rovnoma tarqatildi. Ularning 76 foizi "audio materiallar darsni zerikarli emas, balki qiziqarli qiladi", deb yozgan. 58 foizi esa "podkastlar orqali eshitgan ma'lumotni matn o'qigandan ko'ra yaxshiroq tushunaman", degan.

5. Xulosa va tavsiyalar

Umumiy xulosa

Yuqoridagi ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, audio materiallar — ayniqsa interaktiv metodlar bilan uyg'unlashganida — ta'lim jarayonining samaradorligini keskin oshiradi. Eshitish orqali o'rganish, kognitiv rivojlanish, tushunish, eslab qolish va muloqotga kirishish kabi ko'nikmalarni mustahkamlaydi. Audio materiallar asosida tashkil etilgan "Jigso", "Fishbone", "Concept mapping", hamda taklif qilingan "Audio Simulation-based Roleplay" metodi O'zbekiston maktablarida ijobiy natijalar ko'rsatdi.

Ammo bu metodlar ichida umuman yangi yondashuv, hali O'zbekiston va jahon tajribasida keng tatbiq etilmagan, ammo katta istiqbolga ega bo'lgan metodni alohida ta'kidlash kerak:

"Interactive Audio Branching Scenario" (IABS) metodi

Bu metod nima?

Interactive Audio Branching Scenario (IABS) — bu audio asosida tuzilgan interaktiv ssenariylar orqali o'quvchini qaror qabul qilishga undaydigan, ko'p variantli tinglash va tanlash asosidagi metoddir. Har bir eshitilgan bo'lakda o'quvchi yo'l ajralishiga duch keladi va vaziyatni hal qilish uchun qaror qabul qiladi.

Misol:

Audio: "Siz eski madaniyat obidasi oldidasiz. Bu yerda sizni bir sayyoh kutmoqda. U o'zbek tilini bilmaydi va yo'l so'ramoqda. Nima qilasiz?"

A: Uni ingliz tilida kutib olib yo'l ko'rsatasiz.

B: Tarixiy joy haqida ma'lumot berasiz.

C: Uni boshqa odamga yo'naltirasiz."

O'quvchi tanlagan javobiga qarab keyingi eshittiriladigan ssenariy o'zgaradi.

Nega bu metod yangilik?

Hali nafaqat O'zbekistonda, balki jahon ta'limida keng tatbiq etilmagan.

Eshituv materiallari o'quvchining faol ishtiroki asosida o'zgaradi.

Audio ssenariylar sun'iy intellekt yordamida ham yaratilishi mumkin.

Qaror qabul qilish, ijtimoiy kompetensiya, tanlov va mas'uliyat hislarini shakllantiradi.

Bu metodni qanday joriy etish mumkin?

1. O'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etiladi (Pedagogika universitetlari, TTJlar orqali).

2. Audio materiallar kutubxonasi yaratiladi (madaniyat, tarix, ona tili, chet tili kabi yo'nalishlarda).

3. Mahalliy platformada (masalan, my.edu.uz) metod asosida simulyatsiyalar joylanadi.

4. Tajriba sifatida 10 ta maktabda joriy etilib, monitoring orqali baholanadi.

5. O'quv dasturlariga integratsiya qilinadi (ayniqsa 7–11 sinflar uchun).

Kelajakdagi yo'nalishlar

O'zbek tilidagi podkast platformalarini yaratish — har bir fan uchun.

Inclusive education (inklyuziv ta'lim) doirasida audio yordamida nogironligi bo'lgan bolalarga individual yondashuvlar.

Multilingual audio simulatsiyalar — bir eshituvda 3-4 tilda tanlovli savollar va tushuntirishlar.

O'zbek adabiyotidagi asarlarni dramatik podkastlarga aylantirib, adabiyot va tilga qiziqishni oshirish.

Tavsiya etilgan yondashuvlar

Yo'nalish Amalga oshirish yo'li

Yangicha metod (IABS) 2025–2026 o'quv yili davomida pilot loyiha sifatida boshlash

Audio kontent yaratish O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan hamkorlik

Fanlararo yondashuv:

Adabiyot+Tarix, Til+Texnologiya, Biologiya+Axborot texnologiyalari

Interaktiv metodlarda audio materiallardan foydalanish o'quvchi faolligini oshiradi, eshitish qobiliyatini faollashtiradi va bilimni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida bu yondashuv hali to'laqonli tatbiq etilmagan. Ammo ilmiy-nazariy asoslar va amaliy tajribalar ushbu metodning keng qo'llanilishi arurligini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

2. Mayer, R.E. (2001). Multimedia Learning. New York: Cambridge University Press.

3. Nunan, D. (2003). Practical English Language Teaching. New York: McGraw-Hill.

4. Andreeva, G.M. (2015). Social Psychology. Moskva: Aspect Press.

5. intereuroconf.com

6. Mutolaa.uz

7. Audio kitob.uz